2.1 Issiqlik almashtirgichlarning turlari va asosiy konstruksiyalari

Yuzali issiqlik almashgichlar. Kimyoviy texnologiyada qobiq-quvurli, zmeevikli, qo 'sh quvurli, namlovchi, plastinali, spiralsimon, g`ilofli, qirrali issiqlik almashish qurilmalari keng ishlatiladi.


Qobiq quvurli issiqlik almashgichlar. Bunday qurilmalar sanoatda eng ko 'p tarqalgan. Qobiq-quvurli issiqlik almashgichlar qobiq ichiga joylashgan quvuriar to 'plamidan iborat bo 'lib, quvurlarning uchlari to 'rlarga mahkamlangan bo 'ladi (2.1-rasm). Qurilmalarning yuqorigi va pastki qismla-rida qopqoq flanes yordamida quvur to 'riga biriktiriladi. Yuqorigi va pastki qopqoqlarda isitilayotgan yoki sovitilayotgan agentlarning kirishi uchun shtutser mo 'ljallangan. Quvurlar to 'rlarga razvalsovka (yumaloqlash), payvandlash, salnikli qistirma qo 'yish va boshqa usullar yordamida biriktirilishi mumkin



2.1-rasm. Bir yo 'lli qobiq-quvurli issiqlik almashinish qurilmasi: 1 — qobiq; 2 — quvur to 'rlari; 3 — quvurlar; 4 — qopqoq; 5, 6 — issiqlik tashuvchi va isitiluvchining kirish va chikib ketish patrubkasi. Issiqlik tashuvchi agentning birinchisi quvurlarning ichidan, ikkinchisi esa quvurlar va qurilmaning ichki devori oralig`idagi bo 'shliqdan harakat qiladi. (2.2-rasm).



2.2-rasm. Quvurlarni quvur to'rlariga biriktirish usullari: a) razvalsovka; b) ariqchalar orqali razvalsovka qilish; v) payvandlash; g) salnikli qistirma qo'yish. 2.1-rasmda bir yo'lli qobiq-quvurli issiqlik almashinish qurilmasi ko'rsatilgan. Bunda isitiluvchi gaz yoki suyuqlik qopqoqdagi patrubka orqali bitta quvurdan kirib, o'sha quvurdan chiqib ketadi. Ko'pincha, bu turdagi isitkichlarda isitilayotgan va issiqlik berayotgan muhitlar bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda harakat qiladi. Isituvchi agent doim isitkichning yuqorigi qismidan va isitilayotgan muhit esa qurilmaning pastki qismidan quvurlar ichiga beriladi. Bu muhitlarning yo'nalishi isitkichdagi yo'nalishga mos keladi, chunki isitilayotgan vaqtida harorat ortishi va kamayishi bilan ularning zichliklari o'zgaradi. Masalan, bug' o'z issiqligini berib sovishi natijasida uning zichligi oshib, pastga qarab harakat qiladi. Bundan tashqari, muhitlarning bu yo'nalishida ularning tezliklari bir xil taqsimlanib, qurilma ko'p



2.3-rasm. Qobiq va quvurlarning turlicha uzayishini kompensasiya qiladigan qobiq-quvurli issiqlik almashgichlar: a) linzali kompensatorli; b) harakatchan qalpoqchali; d) U — simon quvurli; 1 — qobiq; 2 — quvurlar; 3 — linzali kompensator; 4 — harakatchan qalpoqcha.

yo'lli qobiq-quvurli issiqlik almashgichlar vertikal va gorizontal holatda bo'ladi. Vertikal issiqlik almashinish qurilmalarini ishlatish qulay, ularning tuzilishi sodda va kam joyni egallaydi. Gorizontal issiqlik almashinish qurilmalari, ko'pincha ko'p yo'lli qilib tayyorlanadi. Qobiq-quvurli qurilmalarda qobiq bilan quvurlar orasidagi haroratlarning farqiga qarab quvur va qobiqning uzayishi har xil bo'ladi. Shuning uchun qobiq-quvurli qurilmalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) qo'zg'almas to'rtli

issiqlik almashgichlar; 2) kompensatsiyalovchi qurilmali issiqlik almashgichlar (bunday qurilmalarda quvurlarning turli darajada uzayishiga imkon bor).


Qo'zg'almas to'rtli issiqlik almashgichlarda issiqlik ta'sirida quvurlar va qobiq har xil uzayadi, shu sababli bunday qurilmalar quvurlar va qobiq o'rtasidagi haroratlar farqi katta bo'lmaganda (50°C gacha) ishlatiladi. Haroratlar farqi 50°C dan katta bo'lganda quvurlar va qobiqning har xil uzayishini qoplash uchun linzali kompensatorli (2.3-rasm, d shakli), arakatchan quvur to'rtli (2.3-rasm, b shakl), U-simon quvurli (2.3-rasm, a shakl) va boshqa turdagi qobiq-quvurli issiqlik almashinish qurilmalari ishlatiladi. Linzali kompensatorli bo'lgan qurilmalar quvurlar va qurilma devori o'rtasidagi bosim $6 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ gacha bo'lganda qo'llaniladi.

Harakatchan quvur to'rtli issiqlik almashgichlar haroratlar farqi katta bo'lganda ishlatiladi. Bu qurilmada pastdagi quvur to'rtli harakatchan bo'lib, bunda quvurlar to'rtlami qurilmaning qobiq'ida harorat ta'sirida uzayganda ham bemalol harakat qiladi. Quvurlarning uzayishini yo'qotuvchi kompensasiyali qurilmalarning tuzilishi murakkabdir.

U-simon qobiq-quvurli issiqlik almashgichlarda issiqlik ta'sirida quvurlarning uzayishidagi kompensasiyani quvurlarning o'zi bajaradi. Shuning uchun ularning tuzilishi sodda bo'lib, quvurlar to'rtlami bitta qo'zg'almas to'rtga o'rnatiladi. Bu qurilmalarda quvurlarning ichki yuzasini tozalash qiyin va quvurlarni to'rtga joylashtirish juda murakkabdir. Qobiq-quvurli issiqlik almashgichlarda quvurlar to'rtga uch xil usul bilan joylashtiriladi (2.4-rasm, a, b, d shakllar): a) to'rtg'ri oltiburchakning qirralari bo'ylab; b) konsentrik aylanalar bo'yicha; d) kvadratning tomonlari bo'ylab. Ko'pincha qobiq-quvurli issiqlik almashgichlarda quvurlar to'rtg'ri oltiburchakning qirralari bo'ylab joylashtiriladi, chunki bunda quvurlar ixcham joylashib, ularning soni ko'proq bo'ladi. Ayrim vaqtlarda quvurlarning yuzasini tozalash oson bo'lishini nazarda tutib quvurlar to'rtga kvadrat tomonlari bo'ylab joylashtiriladi. agentlarning tezligi ancha katta bo'lishi kerak: gazlar uchun 8-30 m/s, suyuqliklar uchun eng kam bilan 1,5 m/s.

Qobiq-quvurli issiqlik almashinish qurilmalari quyidagi afzalliklarga ega: ixcham, metall kam sarf qilinadi, issiqlik almashinish yuzasi katta, quvurlarning ichini tozalash


oson. Bu qurilmalar kamchiliklardan ham holi emas: issiqlik tashuvchilarni katta tezlik bilan o'tkazish qiyin, quvurlarning tashqarisidagi bo'shliqni tozalash va ta'mirlash imkoni kam.



2.4-rasm. Quvurlarni quvur to'rlariga joylashtirish usullari: a) to'g'ri oltiburchakning qirralari bo'ylab; b) kvadratning tomonlari bo'ylab; d) konsentrik aylanalar bo'ylab; 1—qurilma qobig'i; 2—quvurlar; t—quvurlar qadami; d—quvur diametri.


Qo'sh quvurli issiqlik almashgichlar. Bunday qurilmalarni “Quvur ichida quvur” turidagi issiqlik almashgichlar deb ham yuritiladi. “Quvur ichida quvur” turidagi qurilma bir necha elementlardan tuzilgan. Har bir element katta diametrli tashqi quvur va konsentrik holda joylashgan ichki quvurdan iborat. Ichki quvurdan isitilayotgan muhit harakat qilsa, quvurlararo bo'shliqdan esa sovitilayotgan agent harakat qiladi. Qo'sh quvurli issiqlik almashgichlar ajraluvchi yoki ajralmas holda, bir va ko'p oqimli qilib tayyorlanishi mumkin. 2.5-rasmda bir oqimli issiqlik almashgich ko'nglizut nadraltnemele ahcen rib amliruq uB .naglitasr' bo'lib, har bir element tashqi (yoki qobiq sifatida) quvur (2) va ichki (yoki issiqlik almashuvchi) quvur (1) dan iborat bo'ladi. elementlar vertikal qatorga tizilgan bo'linisayiskes hsinihsamla kilqissi ,bil' tashkil etadi. Ichki quvurlar tirsaklar (3) orqali, tashqi quvurlar esa flaneslardagi shtutserlar (4) yordamida biriktiriladi. Ichki quvurlarning va quvurlararo bo'shliqning ko'ndalang kesimlari kichik bo'lganligi sababli kichik sarflarda ham issiqlik tashuvchi agentlarni katta tezliklar bilan o'tkazish mumkin. Shuning uchun bu issiqlik almashgichda yuqori ko'rsatgichli issiqlik o'tkazish koeffitsientiga erishish mumkin va qurilmaning massa birligiga to'g'ri keladigan issiqlik miqdori qobiq-qurilmalarga nisbatan yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, issiqlik tashuvchi agentlarning tezligi katta bo'lgani uchun quvurlarning yuzasida har xil iflosliklar hosil bo'lmaydi. Bu turdagi

qurilmalar yuqori bosimda va issiqlik tashuvchi agentlarning sarflanish miqdori kam bo'lganda ham ishlaydi. Ularning afzalligi: issiqlik tashuvchi agentlar katta tezlikka ega bo'lganligi uchun issiqlik o'tkazish ko'effitsientining qiymati katta, qurilmani tayyorlash oson, gidravlik qarshiligi kam. Issiqlik almashinish ko'rsatkichlari bir xil bo'lgan sharoitda «Quvur ichida quvur» turdagi qurilmalar qobiq-quvurli qurilmalarga nisbatan o'lchamlari katta bo'ladi va tayyorlanishi uchun ko'p metall sarflanadi.



2.5-rasm. Qo'sh quvurli issiqlik almashgich: 1-ichki quvurlar; 2-tashqi quvurlar; 3-tirsaklar; 4-birlashtiruvchi patrubkalar; I va II-issiqlik tashuvchi agentlar.

Namlanuvchi issiqlik almashgichlar. Bunday qurilmalar tashqi tomonidan suyuq holdagi issiqlik tashuvchi (odatda suv) bilan namlanib turuvchi zmeeviklardan iborat (2.6-rasm). Taqsimlab beruvchi tarnov orqali suv yuqorigi quvurga berilib, undan keyin pastki quvurga tushadi. Ketma-ket hamma quvurlardan o'tgach, suv quvurlarning tagida joylashgan yig'uv idishiga tushadi. Odatda bunday sovitkichlar ochiq havoda joylashtirilgan bo'ladi. Afzalliklari: sovituvchi suvning sarfi kam, tuzilishi sodda va arzon, quvurlarni tozalash oson. Namlanuvchi issiqlik almashinish qurilmalari asosan suyuqlik yoki gazlarni sovitish hamda bug'larni kondensatsiyalash maqsadida ishlatiladi.




2.6-rasm. Namlanuvchi issiqlik almashgich:

1- tarnov; 2 - tirsak; 3 - quvur; 4 — yig`gich.

Zmeevikli issiqlik almashgichlar. Bunday qurilmalarda 25-75 mm II quvurlardan tayyorlangan spiralsimon zmeeviklar suyuqlik bilan to'ldirilgan idishda o'rnatiladi. Botirilgan zmeevik quvurlaridan gaz yoki bug' harakatlanadi. Zmeevikli issiqlik almashgichlarning diametri idishning o'lchamlariga ko'ra 300-2000 mm ga teng bo'lishi mumkin. Suyuqlik bilan to'ldirilgan idishning hajmi katta bo'lgani va idish ichidagi suyuqlikning tezligi juda kichik bo'lganligi uchun zmeevikning tashqi devori tomonidagi bug' bilan suyuqlik orasidagi issiqlik berish koeffitsienti ham kichik qiymatga ega bo'ladi. Qurilmaning hajmini kamaytirish va suyuqlikning tezligini oshirish uchun uning ichiga stakanga o'xshash idish tushiriladi (2.7-rasm).


Zmeevik quvurlarida harakatlanayotgan bug'ning bosimi 0,2-0,5 MPa gacha bo'lganda zmeevik uzunligining quvur diametriga nisbati 200-245 bo'lishi mumkin. Agar bu nisbatning miqdori katta bo'lsa, bug' kondensati zmeevik quvurlarining pastki qismida yig'ilib, issiqlik almashinish tezligi kamayadi va gidravlik qarshiliklar ortib ketadi. Afzalligi: tuzilishi sodda, tayyorlash oson, issiqlik almashinish yuzasini almashtirish qulay, idishdagi suyuqlikning hajmi katta bo'lganligi sababli harakat rejimining o'zgarishlariga uncha sezgir emas. Kamchiliklari: o'lchami va gidravlik qarshiligi katta, idishdagi suyuqlikning tezligi kam bo'lganligi uchun zmeevikning tashqarisidagi issiqlik berish koeffitsienti kichik, quvurlarning ichki yuzasini tozalash qiyin.



2.7-rasm Zmeevikli issiqlik almashgich. Kanallar ikki guruhga 1- zmeevik; 2 — qobiq; 3, 4 -patrubkalar; 5, 6 - shtutserlar; 7 - stakan; birinchi I va II - issiqlik tashuvchi agentlar.

Plastinali issiqlik almashgichlar. Bunday qurilmalar yupqa metall listlardan tayyorlangan bir necha qator parallel qat-qat burma qilingan plastinalardan tuzilgan bo'ladi (2.8-rasm). Plastinalar o'rtasidagi guruh kanallaridan issiqlik tashuvchi agent harakat qilsa, ikkinchi guruh kanallaridan esa issiqlik qabul qiluvchi agent harakat qiladi. Plastinalar A va B bosh plitalari va tortish vinti (shaklda ko'rsatilmagan) yordamida siqiladi, plastinalar oralig'ida rezinali qistirmalar joylashtirilgan. B plitaning yuqorigi chap shtutser orqali kirgan issiq suyuqlik (I) 4-5 va 2-3 plastinalar oralig'idagi bo'shliqlarni egallaydi va A plitadagi pastki o'ng shtutser orqali tashqariga chiqariladi. Sovuq suyuqlik esa (P) A plitadagi pastki chap shtutser orqali qurilmaga kirib, 1-2 va 3-4 plastinalar oralig'idagi bo'shliqlarni egallaydi, so'ngra B plitadagi yuqorigi o'ng shtutser orqali tashqariga chiqadi.


Sanoat miqyosida ishlab chiqarilayotgan plastinali qurilmalarning issiqlik almashinish yuzasi plastinalarning asosiy o'lchamlariga ko'ra 2 dan 600 m² gacha etadi; bunday qurilmalarni bosimning qiymati 1,6 MPa gacha va ish muhitining harorati – 30 dan +180°C gacha o'zgarganda ishlatiladi. Qurilmalar suyuqlik va bug' (gaz) o'rtasida issiqlik almashinishini tashkil etishda sovitgich, isitgich va kondensatorlar sifatida foydalaniladi. Plastinali issiqlik almashinish qurilmalari qalinligi 1 mm bo'lgan metall listdan tayyorlanadi. Plastinali qat-qat burmalarning ko'ndalang kesimi odatda balandligi 4-7 mm va asosi 14-30 mm bo'lgan teng tomonli uchburchak ko'rinishga ega. Burmalar gorizontalar, archasimon, gorizontalar burchak ostida va boshqa ko'rinishlarda tayyorlanadi.



2.8-rasm. Plastinali issiqlik almashgich: qurilmaning sxemasi: A, B — bosh plitalar; 1, 5 — qat-qat burma qilgan plastinalar; I, II — issiqlik tashuvchi agentlar; b) plastinaning tuzilishi; 1, 4 — rezinali qistirmalar; 2, 3 - I suyuqlik uchun teshiklar; 5, 6 - II suyuqlik uchun teshiklar.

Plastinalarning materiali ruxlangan yoki korroziyaga bardosh po'lat, titan, alyuminiy, melxiordan iborat. Qurilmaning tayanchlari va siquvchi plitalari qalinligi 8-12 mm bo'lgan uglerodli po'latdan tayyorlanadi. Bunday issiqlik almashinish qurilmalari juda ixcham bo'lib, ikkala issiqlik tashuvchilarni katta tezlik bilan o'tkazish imkoniyatiga va yuqori issiqlik o'tkazish koeffitsientiga ega. Gidravlik qarshiligi esa kam. Biroq, bunday qurilmalar katta bosimlarga bardosh bera olmaydi, issiqlik almashgich ta'mir qilingandan so'ng plastinalar orasidagi tegishli zichlikni yana hosil qilish qiyin.


Spiralsimon issiqlik almashgichlar. Bunday qurilmalar to'g'ri to'rtburchaklik kesimga ega bo'lgan ikkita kanallardan iborat (2.9-rasm). Kanallar yupqa metall plastinalardan tuzilib, ular issiqlik almashinish yuzasi vazifasini bajaradi. Spirallarning ichki tomonidagi uchlari ajratuvchi to'siq orqali biriktirilgan. Kanallar tizimi qopqoq yordamida berkitilgan. Sanoatda isitish yuzasi 10-100 m² bo'lgan spiralsimon issiqlik almashgichlar ishlab chiqariladi; bunday qurilmalar ish muhitning harorati 20-200°C bo'lganda vakuum bilan ham, 1 MPa gacha bosim bilan ham ishlashi mumkin. Spiralsimon issiqlik almashgichlardan suyuqlik-suyuqlik, gaz-suyuqlik o'rtasida issiqlik almashinishini tashkil etishda ham bug'lar va bug' gazli aralashmalarni kondensatsiyalash maqsadida foydalanish mumkin.



2.9-rasm. Spiralsimon issiqlik almashgich: 1, 2 - spiralsimon listlar; 3 - to'siq; 4 - qopqoqlar; 5 — flanes; 6 - qistirma; 7 — spirallarchi sopiooralig'ida ma'lum ushlab turuvchi metall parchasi; 8 - suyuqliklarning kirish va chiqish shtutserlari.

Afzalliklari: tuzilishi ixcham, tayyorlash oddiy, ikkala issiqlik tashuvchi agentni katta tezlik bilan o'tkazish mumkinligi uchun katta issiqlik o'tkazish koeffitsientiga ega, gidravlik qarshiligi ko'p yo'lli qobiq-quvurli qurilmalarnikiga qaraganda kam. Kamchiliklari: tayyorlash va ta'mirlash murakkab, 1MPa dan ortiq bosim bilan ishlash mumkin emas.


G'ilofli issiqlik almashgichlar. Bunday qurilmalarda (reaktorlarda) isitish yoki sovitish boshqa jarayonlar bilan (masalan, kimyoviy) birgalikda olib boriladi. 2.10-rasmda qo'sh devorli yoki g'ilofli qurilmaning shakli ko'rsatilgan. Bunda issiqlik almashinish yuzasi vazifasini reaktorning devori bajaradi. G'ilof (2) qobiq (1) flaneslar (4) yordamida biriktirilgan. Qurilma devorining tashqi yuzasi va g'ilof oralig'idagi bo'shliqda issiqlik tashuvchi agent (masalan, suv bug'i) sirkulyatsiya qiladi. Qurilmaning ichida esa issiqlikni qabul qiluvchi agent (suyuqlik) bor.




2.10-rasm. G'iloqlik almashgich (a) va g'iloqlikni qurilmaga biriktirish usullari (b — flanes yordamida; d — payvandlash yo'li bilan): 1 - idishlarning qobiqlari; 2 — isituvchi g'iloqlar; 3 - halqalar; 4 - flaneslar.

Bu turdagi qurilmalarning yuzasi chegaralangan (10 m² gacha) bo'lib, g'iloqlikdagi ortiqcha bosim 1 Mpa dan ortmasligi kerak. Devordan suyuqlik muhitiga issiqlik berishni jadallashtirish uchun idishning ichiga mexanik aralashtirgich joylashtiriladi. Ayrim paytlarda qurilma ichidagi suyuqlik bug' yoki siqilgan gaz bilan ham aralashtirilishi mumkin.

Qirrali issiqlik almashgichlar. Texnikada anchagina ko'p qo'llanilib turiladigan ba'zi issiqlik almashinish jarayonlarida issiqlik o'tadigan yuzaning ikki tomonidagi issiqlik berish koeffitsientlari birbiridan katta farq qiladi. Masalan, havoni kondensatsiya bo'layotgan suv bug'i bilan isitishda bug'dan devorga issiqlik berish koeffitsienti $\alpha = 1000 \div 15000$ bo'lsa, devordan isitilayotgan havoga issiqlik berish koeffitsienti $\alpha = 10 \div 15$ bo'ladi. Bunday sharoitda samaradorligi kam bo'lgan issiqlik tashuvchi agent (havo) tomonidagi quvurlar qirrali qilib tayyorlanadi. Natijada issiqlik almashinish yuzasi kattalashib, bug'dan havoga o'tgan issiqlik miqdori ko'payadi. 2.11-rasmda quvurlari qirrali qilib tayyorlangan issiqlik almashgichlarning elementlari ko'rsatilgan. Tadqiqotlardan ma'lumki, quvurlarning yuzalari qirrali qilinganda issiqlik almashinish yuzasining ko'payishidan tashqari, qirralar oqimning girdobsimon holatga kelishiga yordam berganligi sababli issiqlik berish koeffitsienti ham ortadi. Shuni ham hisobga olish kerakki, bunda issiqlik tashuvchi agentni haydash uchun bo'lgan sarf ko'payadi.



2.11-rasm. Qirrali issiqlik almashgichlarning elementlari: a) qurilmalari ko'ndalang kesim bo'yicha joylashtirilgan; b, d) qirralari o'q kesimi bo'yicha joylashtirilgan; e) qirralari qat-qat burmali qilib tayyorlangan.




2.12-rasm. Qirrali quvurlar: a) bo'ylama qirrali; b) kesilgan qirrali; a) ko'ndalang qirrali; Tashqi yuzasi qirrali qilib tayyorlangan quvurlar bir necha turga bo'linadi:

- 1) bo'ylama qirrali (2.12-rasm, *a* shakl);
- 2) kesilgan qirrali (2.12-rasm, *b* shakl);
- 3) ko'ndalang qirrali (2.12-rasm, *d* shakl);
- 4) spiralsimon qirrali (2.12-rasm, *e* shakl).

Qirralarning samaradorligi issiqlik berish koeffitsienti (a) orqali belgilanadi. Qirrali quvurlar ishlatilganda a ning qiymati qirraning balandligi, shakli va materialiga bog'liq bo'ladi. Agar a ning qiymati yuqori bo'lishi shart bo'lmasa, po'latdan tayyorlangan qirralardan foydalanish etarli bo'ladi, mabodo a katta qiymatlarga erishilishi zarur bo'lgan paytda misli yoki alyuminiy qirralarni qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Quvurning ichidagi termik qarshilik katta bo'lgan paytda chegara qatlamni emiradigan yoki girdobsimon holatga keltiradigan turbulizatorlardan foydalaniladi. Turbulizatorlar sifatida turli konstruksion elementlar (spirallar, diafragmalar, disklar) va kiydirma (halqalar, sharlar) ishlatiladi; bulardan foydalanilganda quvurning qarshiligi ko'payadi. 2.13- rasmda oqimning girdobsimon holatga keltirishga yordam beradigan diafragmali, diskli, spiralli quvurlar ko'rsatilgan. Masalan, quvur ichiga diafragma o'rnatilganda oqim $Re = 140$ bo'lganda

turbulent holatga o'tadi (qo'shimchasi bo'lmagan quvurda esa bu holat $Re = 2300$ bo'lganda yuz beradi). Demak, diafragmali quvurda izziklik almashinish taxminan 4 marotaba tez boradi.



2.13-rasm. Turbulizatsiya qiladigan qo'shimcha quvurlar: a) diafragmali; b) diskli; d) spiralli.

2.2 Qobiq quvurli izziklik almashtirgichni hisoblash

Qizdirgichni hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlarni "Farg'onaazot" Ajirka kislotasini regeneratsiya qilish sexi reglamenti bo'yicha quyidagilarga teng: Сталь 10X17H13M2T, qobiq materiali ВСтЗсп5. Apparat ichidagi modda sirka 133°C , $F=22,75 \text{ m}^2$; $P=11 \text{ at}$; $n=121$; $d=25 \times 2 \text{ mm}$.

Dastlab apparatning izziklik almashinish yuzasi $F=22,75 \text{ m}^2$ dan foydalanib trubalar uzunligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$1. F = \pi d l n; \text{ dan } l = \frac{F}{\pi d n} = \frac{22,75}{3,14 \cdot 21 \cdot 10^{-3} \cdot 121} = 1,56 \text{ m}$$

Основы процессы и аппараты химической технологии kitobi 2.3 jadvaliga ko'ra izziklik almashinish qizdirgichning asosiy o'lchamlarini jadvaldan olamiz:

Qobiq ichki diametri, $D=400 \text{ mm}$;

qobiq ichidagi trubalar (bir donasi uchun) diametri $d=20 \times 2 \text{ mm}$;

apparat bir yo'lli $z=1$; trubalar uzunligi $l=2 \text{ m}$; $F=23 \text{ m}^2$; $n=121$.

2. Issiklik almashinish qizdirgichning trubalararo ko'ndalang kesim yuzi


$$Str = \frac{22,75}{3,14 \cdot 21 \cdot 10^{-3} \cdot 121} = 1,56 \text{ m}$$

3. Issiklik almashinish qizdirgichning trubalararo ko'ndalang kesim yuzi

D -qobiq ichki diametri, mm. d_{tsh} - ichki diametr, mm.

$$S_{\text{traro}} = \frac{\pi}{4} (D^2 - d_{\text{tsh}}^2) = \frac{3,14}{4} (0,16 - 0,0004 * 181) = 0,0687 \text{ m}^2.$$


Apparat dnisha va obechayka qismining sxematik ko'rinishi :



Rasm 2.14 dnisha va obechayka

2.3 ISSIQLIK ALMASHINISH QIZDIRGICHGA FLANETS TANLASH

Apparatni dnisha va obechayka qismini biriktirish uchun quyidagi tashqi tomondan biriktiruvchi (фланец наружного исполнения) flannelsni tanlaymiz



Rasm 2.15

D_ϕ - flange outer diameter, mm; D_6 - bolt circle diameter, mm; D_1 - flange diameter, mm; D_2 - flange diameter, mm; D_y - flange diameter, mm; D_y - conditional diameter equal to neck diameter, mm.

$$D_\phi = 580 \text{ mm}; \frac{22,75}{3,14 * 21 * 10^{-3} * 121} = 1,56 \text{ m}$$

$D_6 = 525 \text{ mm};$ bolt number $z = 16;$

$D_1 = 490 \text{ mm};$ $h = 36 \text{ mm};$

$D_2 = 460 \text{ mm};$ mass = 31 kg.

$D_y = 400 \text{ mm};$

p_y , МН/м²	D_y	d_H	D_ϕ	D_6	D_1	Болты		Тип фланцев																		
								1		2		3		4												
								ГОСТ 1255—67		ГОСТ 1235—67		ГОСТ 12821—67		ГОСТ 12830—67												
						d_ϕ	z	D_2		h		D_2		h		D_2		D_H		D_6		H		h		Масса, кг
								ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	ММ	
0,25	400	426	535	495	465	M20	16	18	11,6	442	24	—	—	440	432	398	45	16	18,6							
0,6			24	15,2	—	—		445	50	18	20,6															
1,0			26	21,6	448	28		445	60	22	30,0															
1,6			34	31,0	460	36		456	32	450	75	32	43,0													
2,5			40	44,6	—	—		472	44	464	100	40	64,8													
4,0			—	—	—	—		488	54	480	135	54	107													
6,4			—	—	—	—		500	62	484	386	155	62	136												
10,0			—	—	—	—		520	76	510	376	200	76	203												


2.4 OPTIMAL LOMPENSATOR TANLASH VA HISOBLASH


Bir qancha kimyo apparatlarida, asosan issiqlik almashtirgich apparatlarida haroratlar farqi turli bo'lganligi uchun kompensator qo'llnadi chunki ularda haroratlar kuchlamishi hosil bo'ladi. Asosan ikki hil turdagi kompensatorlar qo'llaniladi:

-linza silfon va membranali bo'lib apparatlarning haroratlar farqi bo'lgan qismlariga o'rnatiladi;

-salnikli kompensator, bu konstruksiya apparatni ajraladigan qismlariga o'rnatililib ularni erkin harakatlanishiga imkon beradi.


To'liqinli kompensator. Linzali va silfonli kompensatorlar diametri 100 mm va undan yuqori bo'lgan apparatlar uchun keng ishlatiladi.





Rasm 2.16 Dumaloq, metalli linza kompensatorlarni asosiy turlari: I-ikkita shtamplangan yarim linzadan payvandlanib tayyorlangan; II- sektor qismlaridan payvandlanib tayyorlangan; III-mis va latundan tayyorlangan apparatlar uchun.IV- mis va latundan bitta yarim linzadan tayyorlangan.

Quyidag jadval 2.2 ga asosan linzali kompensator tanlaymiz, shartli bosimi 0,6-1,6 MN/m^2 . $d_H=d_{tashq}$



Rasm 2.17 linzali kompensator

Jadval 2.2


p_y , MH/M^2	D_y	d_H	D	l	s	Δ_L	Силы		Масса лизы, кг
							P_K	P_p	
мм							МН		
0,6	400	426	576	71	2,5	10	0,0274	0,031	5,91
1,0				72	3	8	0,0375	0,0515	7,15
1,6				74	4	6	0,0648	0,082	9,57
0,6		405	555	71	2,5	10	0,0274	0,031	5,49
1,0			556	72	3	8	0,0375	0,0515	6,86
1,6			558	74	4	6	0,0648	0,082	9,21

Yuqoridagi jadvaldan apparatimiz diametrini hisobga olib:

$D_y=400$ mm; $d_{\text{tash}}=426$ mm; $D=576$ mm; $l=71$ mm; $s=2,5$ mm; massa=5,91 kg larni olamiz.


2.5 APPARATGA TAYANCH TANLASH

Apparatlarni loyihalangan asosga o'rnatish yoki maxsus konstruksiyfa joylashtirish uchun tayanchlardan foydalanilindi.



Rasm 2.18 Viniplastdan tayyorlangan lapalar tayachi

Po'latdan tayyorlangan lapali tayanchlar (vertikal apparatlar uchun)



Rasm 2.19 Lapali tayach

Quyidagi jadvaldan tayach qiymatlarini olamiz $D_B=400$ mm; $D_0= 504$ mm; $H=180$ mm; $H_1= 120$ mm; $h=60$ mm; $s=10$ mm; $s_1=4$ mm; $d=12$ mm; $d_0= M12$; massa=11 kg.

Jadval 2.3

$G \cdot 10^2$ M_H (mc)	D_θ	D_6	H	H_1	h	s	s_1	d	d_6	Macca, кз
	мм									
0,16	250	328	155	105	50	8	4	12	M12	7,12
	300	400	170							9,04
0,24	400	504	180	120						11,0
0,40	500	626	195	135	60	10	6	24	M16	15,8
0,64	600	750	215	155						18,4
1,0	700	864	235	185	80	12				33,4
1,6	800	978	265	205			14	24	M16	40,2
2,4	900	1088	335	235	100	14				60,8
4,0	1000	1212	365	265		16				67,1

3-BO'LIM. QOBIQ QUVURLI APPARATNI ISHGA TUSHIRISH QISMI

Texnologik qurilmalarning operator va slesarlari texnologik mashinalar va jihozlarni qurish va montaj ishlarini texnik ko'rigidida ishtirok etishlari zarur. Bunday texnik ko'rikdan asosiy maqsad qurilish va montaj ishlari, apparatlar joylashuvining maqbulligi va truboprovod elementlarining to'g'ri joylashuvini belgilangan loyiha hujjatiga asosan ekanligini tekshirishdir.

Qurilmaga suvni qabul qilish. Bu operatsiya unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi.

Faqatgina mutaxassis truboprovod armaturalaridan zadviyka, kran, flants zichlagichlaridan va drenaj shtutserlaridan suvni oqib chiqmayotganiga ishonch hosil qilishi zarur. Agar suyuqlikni oqib chiqishi kuzatilsa bu holat javobgar personal tarafidan bartaraf etadi. Bunday operatsiyani bajarish faqatgina yangi texnologik qurilmalarni qishda ishga tushirishda qiyinchilik tug'diradi. Chunki alohida sharoitlarda ya'ni suvni muzlashida yoki armaturalarni sinishida yuza keladi.

Bug'ni qurilmaga qabul qilish. Bu operatsiyani amalga oshirish ishchi personaldan yuqori malaka talab etadi, chunki bu operatsiya juda qiyin. Xavfliligi shundaki bug kondensatini bug' truboprovodida harakatlanishida gidravlik zarb hosil bo'lishidir.

Jihozlar va kommunikatsiyalarni ta'mirlashga tayyorlash. Texnologik jarayonlarni amalga oshiruvchi ta'mir talab jihozlar va kommunikatsiyalarni sinchikovlik bilan quyidagicha tayyorlanishi zarur:

- apparat va yig'gichlarni ishchi suyuqlikdan bo'shatishdan zarur;
- kommunikatsiyalarni o'chirish;
- cho'kindilardan tozalash;
- suv yordamida sinchikovlik bilan yuvish;
- inert gaz yordamida purkash.

Apparatning havo bilan ishlash muhitida zararli va porlovchi moddalar yo'qligini tekshirish zarur. Apparat ichidagi amalga oshirilidigan barcha ishlar : tozalash, ta'mirlash va ko'rik o'tkazishni belgilangan tartibda va sex boshlig'i yoki javobgar shaxs tomonidan kuzatuv asosida o'tkazish zarur. Apparatdagi ta'mirlash

ishlari gazga havfli ishlarni havfsiz olib borish instruksiyasiga muvofiq tartibda amalga oshirish zarur. Portlashga va yong'inga havfli ob'yektlarda olib boriladigan ta'mirlash ishlari ushbu ishlarni havfsiz olib boruvchi organlarning namunaviy instruksiyasi asosida olib boriladi. Olovli ishlar asosan kunduz kuni olib boriladi, lekin favqulotda holatlar kuzatilganda kunning talab etilgan har qanday vaqtida amalga oshirilishi mumkin. Portlash yoki yong'in chiqishiga moyil bo'lgan barcha ishlar (огневые работы) korxona bosh muhandisi yoki ishlab chiqarish korxonasi boshlig'i imzosi bilan tasdiqlangan hujjat asosida olib boriladi.

Olovga havfli ishlar korxona rahbariyati va texnika hafsizligi xodimlari nazorati ostida olib borilishi zarur.


Sovuq sharoitda ta'mirlangan sexni ishga tushirish tartibi

Barcha tayyorgarlikdan so'ng sexni ishga tushurish uchun zarur:

- bug' kollektoridagi drenaj ventilini ochib bug'sputnikka (пароспутник) bug' uzatiladi;
- kondensat kollektoridagi drenaj ventili ochiladi;
- kondensatni bug'sputnik va yig'gichdan qaytarish;
- bug'sputnik linyasini drenaj ventilidan bug chiqqunga qadar qizdirish;
- bug'sputnikka uzatilayotgan bug'ni nazorat qilish;

Issiqlik almashtirgichni tekshirish va ta'mirlash. Apparatni tekshirish va ta'mirlash ketma-ketligi deyarli bir hil.

Apparatni yuvish. Truba bo'shlig'i va trubalararo bo'shliqdagi suyuqlikdan shtutser yoki maxsus lyuk orqali apparat butunlay bo'shatiladi. So'ngra ma'lum vaqt ichida apparat ichidagi muhitning fizik-kimyoviy hossalari aniqlanadi. Apparatni yuvish va bug'ltishdan ikki maqsadda foydalanilinadi: yuvish va bug'latish orqali portlash, yong'inga havfli va toksik moddlar hamda apparatni ayrim joylariga o'rnatilgan moddalardan tozalanadi. Shuni takidlash joizki yuvib tozalash usuli apparatni sirti va turli oraliq qismlariga joylashib qolgan qoldiq moddlardan yuqori bosimda suv oqali yuvish eng oson va ishonarli usuldir. Qobiq quvurlida apparatni trubalararo bo'shligini tozlashga juda katta e'tibor beriladi. Yuvuvchi agent sifatida suv va asosan kerosindan foydalanilinadi.



Rasm 3.1 Issiqlik almashtirgichni kimyoviy tozalash


1-yuvuvchi suyuqlikni tindirish yig'gichi; 2- qizdirgich; 3-yig'gich; 4-nasos; 5-cho'kmani tushirish shtutseri.

Appartani qismlardan ajratish. Apparat unga ulangan kommunikativ jihozlar ventil, zadviyka va zaglushkadan ajratiladi. Ba'zida apparat dnishasini bo'shatish uchun unga ulangan truborповod ni jaratish lozim bo'ladi. Katta o'lchamdagi qobiq quvurli appartalarni qopqoq qismini ajratish uchun maxsus kranlar va statsionar yuk ko'tarish mexanizmlaridan foydalaniladi.

Nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish. Dnisha va seksiydagi to'siqni qalinligini aniqlash uchun ulardan teshik ochish yoki ultratovushli o'lchagichlar orqali aniqlanadi.

Truba panjarlarida joylashgan trubalrni oxirini sinchikovlik bilan tozalash talab etiladi. Trubalarni tekshirish visual holatda olib boriladi, masalan truba diametrini yoki qalinligini o'lchash orqali amalga oshiriladi.

Kimyo ishlab chuqarish zavodlarida tozalsh mexanizmini turli usulari kashf etilgan. Asosan aylanma burg'ilovchi qurilma bilan amalga oshiriladi. Truba ichidagi cho'kindilar burg'ilovchi qurilma yordamida o'z og'irligi ta'sirida yoki itarish kuchi yordamida chiqarib yuboriladi. Burg'ulovchi element valga mahkamlangan bo'lib valning uzunligi truba uzunligi bilan bir hil bo'ladi.



Rasm 3.2 Gorizontal va vertikal apparatlarni mexanik tozalsh jihozlari:1- burg'ilovchi element; 2- val; 3- taqsimlagich zolotnik; 4- yuritma; 5- zichlash mexanizmi; 6-koshka; 7- uch oyoq; 8-lebyodka; 9-kran yo'li.

4-BO'LIM. IQTISODIY QISM

Eski texnika va yangi texnika bo'yicha kapital mablag'larni hisoblash

Eski texnika bo'yicha kapital mablag'lar. Eski texnika ulgurji narhi :

$U^1 = 95000000 \text{ c}\check{\text{y}}\text{M} + \text{elektr uskunalar narxi} + \text{elektr apparaturalar narhi} = 102000000 \text{ so'm.}$

Eski texnika va yangi texnika montaji mehnat sarfi bo'yicha farq qilmaydi:

$$U_{\sigma}^1 = U^1 \cdot K_{\sigma}$$

Bu yerda $K_{\sigma}=1,1$ -ulgurji narxdan hisob balans narxga o'tish koeffisienti.

$$U_{\sigma}^1 = 102000000 \cdot 1,1 = 112000000 \text{ so'm}$$

Eski texnika bo'yicha kapital harajatlar

$$K_{+}^1 = U_{\sigma}^1 = 112000000 \text{ so'm}$$

Yangi texnika bo'yicha kapital harajatlar. Yangi texnika ulgurji narxini topish:

$$U^{\text{II}} = 105000000 \text{ c}\check{\text{y}}\text{M} - \text{elektr asboblari bilan. } U^{\text{II}} = 112000000 \text{ so'm}$$

Yangi texnika hisob balans narxini topish

$$U_{\sigma}^{\text{II}} = U^{\text{II}} \cdot 1,1 = 112000000 \cdot 1,1 = 123200000 \text{ so'm.}$$

Yangi texnika bo'yicha kapital harajatlar

$$K^{\text{II}} = U_{\sigma}^{\text{II}} = 123200000 \text{ so'm.}$$

Yillik ish vaqti fondi va ekspluatatsion ish unumdorligini hisobi

Yillik ish fondi T_2 yangi va eski texnika uchun 3 oylik tannaffus hissobiga 6720 soat deb qabul qilinsin.

$K_r=0,75$ -texnik ish unumdorligidan ekspluatatsion ish unumdorligiga o'tish

Yillik ekspluatatsion ish unumdorligini hisoblash

$K_{\sigma}^1=0,80$ -eski texnika bo'yicha smena oraliq ishlatish vaqti;

$K_{\sigma}^2=0,85$ -yangi texnika smena oraliq ishlatish vaqti:

-yangi texnika

$$Q_r^1 = B_1 = q_{2,4}^1 \cdot T_r^1 \cdot K_b^1 = 520 \cdot 0,75 \cdot 6720 \cdot 0,8 = 2096640 \text{ m}^3 / \text{yil}$$

$$Q_r^2 = B_2 = q_{2,4}^2 \cdot T_r^2 \cdot K_b^2 = 550 \cdot 0,75 \cdot 6720 \cdot 0,85 = 2356200 \text{ m}^3 / \text{yil.}$$

Yillik ish unumdorligi uchun harajatlarni hisoblash:

Ish haqi uchun harajatlarni hisoblash

$$S_{3n}^1 = S_{3n}^2 = B \cdot \lambda \cdot T_{\kappa} \cdot \sum_{i=1}^6 \cdot C_{T2} = 1 \cdot 1,4 \cdot 6720 \cdot 3850 = 36220800 \text{ cŷŷ / ŷul}$$

$\lambda = 1,4$ -IV Razryadli ishchi soatlik ta'rif stavkasi. Renovatsiya uchun soatli amortizatsion chegirmalar

бу ерда: $A_1 = 7\%$ - Renovatsiya uchun amortizatsion chegirmalar normasi.

$$S_{ap}^1 = \frac{7 \cdot 102000000}{100} = 7140000 \text{ so'm}$$

$$S_{ap}^{11} = \frac{7 \cdot 123200000}{100} = 8624000 \text{ so'm}.$$

Ekspluatatsion chegirmalar. Kapital remont uchun harajatlar

$$S_{kp}^1 = \frac{A_1 \cdot U_{\delta}^1}{100} \qquad S_{kp}^2 = \frac{A_2 \cdot U_{\delta}^2}{100}.$$

бу ерда: A_1 - Balans narxidan kapital ta'mirlash uchun amortizatsion chegirmalar normasi bu yerda: $A_1 = 8\%$

$$S_{kp}^1 = \frac{8 \cdot 102000000}{100} = 8160000 \text{ cŷm}$$

$$S_{kp}^{11} = \frac{8 \cdot 123200000}{100} = 9856000 \text{ cŷm}.$$

Texnik kuzatuv va joriy ta'mirlash uchun harajatlar

$$S_{\text{эп}} = S_{\text{эпу}} \cdot \frac{T_{\Gamma}}{T_{\text{у}}}$$

$K_{\text{эп}} = 2,3$ -soatbay ish xaqidan texnik qarov va joriy ta'mir xarajatlariga o'tish koeffitsienti

$$S_{\text{эпу}} = 1 \cdot 2,3(a_T \cdot \text{ч}_T \cdot c_T + a_{TO} \cdot c_T)$$

Bunda a_T -sikldagi ko'riklar soni $a_T = 6$

ч_T -bitta texnika qarov mexnat sarfi $\text{ч}_T = 24 \frac{\text{киии}}{\text{coam}}$

a_{mo} - sikldagi va joriy ta'mirlar soni $a_{mo} = 48$

ч_T -bitta va joriy ta'mir sarfi $\text{ч}_{TO} = 4 \frac{\text{киии}}{\text{coam}}$

C_m -IV razryad ishchi ta'rif stavkasi $C_m=3850$ cʻm

$$S_{\text{apu}}^1 = S_{\text{apu}}^2 = 1 \cdot 2,3 \cdot (6 \cdot 24 \cdot 3850 + 48 \cdot 4 \cdot 3850) = 1827672 \text{ cʻm}$$

$$S_{\text{apu}}^1 = 1827672 \cdot \frac{6720}{14400} = 8529136 \text{ cʻm}$$

$$S_{\text{ap}}^2 = 1827672 \cdot \frac{6720}{16800} = 7310688 \text{ cʻm}$$

Elektr energiyasi harajatlari. Elektr energiya sarfi

$$W_{\text{al}}^1 = W_{\text{al}}^2 = N_{\text{al}} \cdot K_c = 56 \cdot 6720 = 376320 \text{ kVt soat}$$

$K_c = 210.6$ so'm bir vaqti kVt elektr energiya bahosi.

Elektr energiya narhi hisobi.

$$S_{\text{al}}^1 = S_{\text{al}}^2 = 0,03 \cdot U_{\text{al}}^1 \cdot W_{\text{al}}^1 \cdot T_T = 0,03 \cdot 210.6 \cdot 376320 = 2377589 \text{ so'm}.$$

Iqtisodiy samaradorlik hisobi. Xalq xo'jalik iqtisodiy effekti.

Bu yerda. Z_y -yangi va eski texnikani ishlatishdagi keltirilgan xarajatlar.

B_2 - yangi texnikaning yillik ish unumdorligi; F -texnikani ishlatish davridagi qo'yish koeffitsienti; A_2 - yangi texnika yillik hajmi.

$$F = U \cdot 3_k (P + E_h) + E_h \cdot K_g$$

Bunda: U -yillik ekspluatatsion harajatlari; 3_k -kapital harajatlari; P -kapital harajatlardan renovatsiyaga chegirma; E_h -effektivlikning normativ koeffitsienti:

$$P=0,0515;$$

$$F=50813$$

$$U^1 = 86200000 \text{ so'm} \quad U^2 = 87060000 \text{ so'm}$$

$$F^1 = 86200000 + 10200000(0,0515 + 0,15) = 106753000 \text{ cʻm}$$

$$F^2 = 87060000 + 12320000(0,0515 + 0,15) = 11184800 \text{ so'm}$$

$$F_y^1 = \frac{F^1}{B^1} = \frac{106753000}{2096640} = 51 \text{ so'm}$$

$$F_y^2 = \frac{F^2}{B^1} = \frac{11184800}{2356200} = 47.5 \text{ so'm}$$

Bitta mashinaning yillik iqtisodiy samaradorligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\mathcal{E}_z = (F_y^1 - F_y^2) \cdot B_2 = (51 - 47.5) \cdot 2356200 = 8246700 \text{ cʻm}.$$

Barcha mashinalarning yillik iqtisodiy samaradorligi

$$\Theta_{ym} = 8246700 * 6 = 49480200 \text{ so'm}$$

Loyihaning texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlari

Jadval

T/r	Ko'rsatgichlar nomi	O'lchov birligi	Qiymati	
			Moder. oldin	Moder.keyin
1	Ish unumdorligi	m ³ /soat	312	350,6
2	Apparat tan narhi	mln.so'm	102	112
3	Elektrodvigatel quvvati	kBT	56	70
4	Mashinaning ishlash muddati	yil	8	11
5	Kapital ta'mir uchun ajratmalar	mln.so'm	8160000	9856000
6	Yillik ish haqqi ajratmalar	mln.so'm /yil	39856246	36220800
7	Elektr energiya sarfi	kVt soat/yil	376320	470400
8	Elektr energiya ta'riflanishi	so'm	198,6	210,6
9	Yillik ish unumdorligi	so'm	6720	6720
10	Kutilayotgan yillik umumiy samaradorlik	so'm	4940200	

5- BO'LIM. HORIIY INVESTITSIIYA QISMI

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 17-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirish bo'yicha joriy etilgan yangi tartib asosida ishlarni tashkil etish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, Toshkent shahri va viloyatlar hokimlari, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirok etdi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, yirik infratuzilma obyektlari va korxonalar barpo etish jarayoniga chet el investitsiyalari izchil jalb qilinmoqda. Davlatimiz rahbari yuqori iqtisodiy o'sishga erishish va kuchli ijtimoiy himoyani ta'minlashda investitsiyalarning muhimligini qayd etar ekan, shu paytgacha bu boradagi ishlar pala-partish bajarib kelinganini tanqid ostiga oldi. Ilgari ushbu soha rahbarlari yuqori raqamlar ortidan quvib, investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatkichlarni oshirib ko'rsatishni kasb qilib olgan edi. Buning oqibatida hokimliklar va tarmoq rahbarlari ushbu "yuk"ni bajarish uchun moliyalashtirish manbasi kafolatlanmagan va tashabbuskori aniq bo'lmagan, hududlar va tarmoqlar rivojlanishiga mos kelmaydigan samarasiz loyihalarni Investitsiya dasturlariga kiritishga majbur bo'lar edi. Masalan, 2012-2017-yillar davomida "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati tomonidan umumiy qiymati 3,3 milliard AQSh dollari bo'lgan 14 ta loyiha investitsiya dasturlariga kiritilgan. Keyinchalik ularning barchasi maqsadga muvofiq emas deb topilgan va hukumat qarorlari bilan to'xtatilgan. Eng achinarlisi, mazkur loyihalar hujjatlarini tayyorlashga 185 million AQSh dollari sarflangan. Investitsiya dasturlarini shakllantirish va loyihalarni ekspertizadan o'tkazish borasida ham qator muammolar bor. Bu jarayon 15 yil avval qabul qilingan qarorlarda belgilangan mezon va tartiblar asosida amalga oshirib kelingan. Jumladan, loyiha texnik iqtisodiy asoslari, biznes rejasi va tender hujjatlari ishlab chiqilgandan so'ng vakolatli organlar bilan takror va takror kelishilishi oqibatida uning ekspertizasi belgilangan 15 kun o'rniga 6 oygacha cho'zilish holatlariga ko'p marotaba yo'l qo'yilgan. Bu investitsiya loyihasining qimmatlashishi va rentabelligi pasayishiga

olib kelgan. Ma'lumki, investitsiya dasturlariga iqtisodiy asoslangan, loyiha-smeta hujjatlari tayyor bo'lgan loyihalar kiritilishi zarur. Lekin ilgari bunday hujjatlar loyiha investitsiya dasturiga kiritilgandan so'ng tayyorlab kelingan. Oqibatda loyihaning dastlabki narxi va tasdiqlangan qiymati o'rtasida ba'zi hollarda hatto 80 foizgacha tafovut yuzaga kelgan. Bu byudjet mablag'lari sarfi asossiz ravishda oshib ketishiga sabab bo'lgan. Loyihalar puxta hisob-kitob qilinmagani, ularni amalga oshirishga investorlarning o'z mablag'lari jalb etilmagani oqibatida ko'plab korxonalar bankrot bo'lgan. Ularni sog'lomlashtirish vazifasi zimmasiga yuklangan tijorat banklari ham katta zararlar ko'rgan. Shu bois joriy yildan boshlab bankrot korxonalarni banklar balansiga berish amaliyotiga chek qo'yildi.

Yuzaki o'tkazilgan iqtisodiy tahlil oqibatida loyihalar foydalanishga qabul qilinganidan keyin ham o'zini oqlamagan – xomashyo yo'qligi, energiya va gaz bilan ta'minlanmagani, iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgani sababli mahsulot ishlab chiqarish o'zlashtirilmay qolgan.

Yana bir kamchilik: o'z vaqtida bajarilmagani yoki ijrosi chala bo'lgani uchun ayrim loyihalar yildan yilga, dasturdan dasturga o'tib kelgan. Masalan, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazini laboratoriya bilan jihozlash loyihasi dastlab 2015-yilda, keyinchalik 2016- va 2017-yillarda investitsiya dasturlariga takroran kiritilgan.

Prezidentimizning 2017-yil 18-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirishning yangi tartibini joriy etish to'g'risida"gi qarori yuqoridagi kabi tahlillar natijasida qabul qilindi. Qarorga muvofiq, mamlakatimizda tarmoq va hududiy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yo'lga qo'yilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu boradagi ishlarni uch bosqichda amalga oshirish zarurligini ta'kidladi. Birinchi bosqichda Rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash kerak. Ushbu Konsepsiya tarmoq, hududiy va maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha strategik vazifalarni o'z ichiga olgan hujjat bo'ladi.

Ikkinchi bosqichda Rivojlanish konsepsiyasi asosida maqsadi va moliyalashtirish manbalari aniq bo'lgan 3 yillik, ya'ni 2019-2021 yillarga mo'ljallangan loyihalar portfeli shakllantiriladi. Ushbu loyihalar Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari bilan kelishilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligida ekspertizadan o'tkaziladi. Har bir loyihani amalga oshirish bo'yicha batafsil kalendar rejasi ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqichda tasdiqlangan 3 yillik loyihalar portfeli asosida Rivojlanish davlat dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash talab etiladi.

Bundan buyon Rivojlanish davlat dasturlariga faqat dastlabki texnik-iqtisodiy asoslari va loyiha-smeta hujjatlari mavjud bo'lgan loyihalar kiritiladi, deya alohida ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev. Prezidentimizning joriy yil 8-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlarini amalga oshirish, davlat dasturi doirasidagi hujjatlarni shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha kompleks ekspertizaning samarali tizimini tashkil qilish to'g'risida»gi qarori sohaga oid yana bir muhim hujjat bo'ldi. Unga muvofiq, Loyiha boshqaruvi milliy agentligi huzurida Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi tashkil etildi. Endilikda loyiha, tender hujjatlari va import shartnomalari ushbu markazda ekspertizadan o'tkaziladi. Yangi tartib bo'yicha ishlar davom etayotgani bois 2018-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalari, istisno tariqasida, Prezident tomonidan tasdiqlanadigan Investitsiya loyihalari ro'yxati asosida amalga oshiriladi. Davlatimiz rahbari tajriba tariqasida Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlarida loyihalarni energiyatejamkor, zamonaviy qurilish va yengil konstruksiyali materiallardan foydalangan holda amalga oshirish orqali ularning qiymatini 20-30 foizga arzonlashtirish amaliyotini joriy etishni taklif qildi. Iqtisod qilingan mablag'lar to'laligicha mazkur loyiha joylashadigan shahar yoki tuman ixtiyorida qoladi hamda ushbu hududning ijtimoiy va kommunal soha masalalarini hal etishga yo'naltiriladi, dedi Prezidentimiz.

Yig'ilishda investitsiya loyihalarini iqtisodiy, moliyaviy va texnologik asoslangan holda ishlab chiqishda loyiha institutlarining o'rniga alohida e'tibor qaratildi. Amaldagi loyiha ishlarini bajarish qoidalari o'tgan asrning 60-70-yillarida ishlab chiqilgan bo'lib, zamonaviy talablarga mutlaqo javob bermaydi. Shu paytgacha xorijiy konsultantlarni jalb etgan holda birorta ham yangi loyiha instituti yaratilmagan. Hududlarda bugungi talablarga javob beradigan loyihalashtirish tashkilotlari yo'q.

Hozirda loyihalashtirish institutlarining asosiy maqsadi loyiha qiymatini baland qilib ko'rsatib, undan tegishli yuqori foizli foyda olish bo'lib qolgan. Bugun bularning barchasiga barham beradigan vaqt keldi, dedi Shavkat Mirziyoyev. "O'zInjiniring" loyihalashtirish tashkiloti iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini loyihalashtirgani kabi, qolgan xo'jalik birlashmalarida ham huddi shunday mutasaddi yuqori malakali mutaxassislariga ega bo'lgan ixtisoslashgan loyiha institutlari bo'lishi kerak.

Ma'lumki, loyihani amalga oshirish guruhlariga to'lanadigan oylik xarajatlari loyihaning umumiy qiymatidan olinadi. Ya'ni ushbu guruhlar muayyan loyihani qanchalik kech ishga tushirsa, shuncha ko'p manfaat ko'radi. Bu esa, o'z navbatida, loyiha narxining sun'iy ravishda oshishiga olib keladi.

Yig'ilishda loyihalashtirish ishlarini takomillashtirish, yangi loyiha institutlarini tashkil etish, qurilish-loyiha hujjatlarini tayyorlash va ekspertiza qilishning mutlaqo yangicha mexanizmini ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Ilgari qarz, kredit va grant mablag'larini jalb qilish va ulardan foydalanish borasidagi ishlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xalqaro moliya institutlari, tashkilotlari va donor mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari bo'yicha idoralararo kengash tomonidan tashkil etilardi. Bu vakolatli davlat organlarining mas'uliyati va tashabbuskorligini pasaytirib, ortiqcha byurokratik tartib-taomillar va xarajatlarga olib kelardi. Prezidentimizning 2017-yil 20-dekabrdagi "Xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida davlat boshqaruvi organlarining yetakchi xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlik qilish bo'yicha vakolatlari aniq belgilab

qo'yildi. Barcha darajadagi hokimliklar ushbu davlat organlari bilan birgalikda ish olib boradi.

Bundan keyin Investitsiya dasturi kabi Rivojlanish davlat dasturiga ham puxta ishlanmagan, moliyaviy manbasi va egasi aniq bo'lmagan, faqatgina bitimlarda qolib ketadigan loyihalarni kiritish amaliyoti takrorlansa, tegishli rahbarlar qonun oldida javob beradi.

Yig'ilishda byudjet va investitsiya mablag'laridan oqilona foydalanish, moliyalashtirish bazasini kengaytirish, soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirish va boshqa masalalar muhokama qilindi. Mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini takomillashtirish

Ushbu loyiha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga hamda boshqa vazirlik va idoralarga 2017-2021 yillar uchun qabul qilingan Harakatlar Strategiyasining uchinchi qismiga muvofiq investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan maqsadini amalga oshirishda, to'g'ridan-to'g'ri chet el sarmoyalarini jalb etish orqali ishchi o'rinlarini yaratishda ko'mak beradi.

Loyiha, shuningdek, bu yo'nalishda boshqa donorlar va xalqaro tashkilotlar sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishda ishtirok etadi.

Kutilayotgan natijalar:

1-komponent: Xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan huquqiy-normativ asoslarni mustahkamlash, investitsiyalarni jalb etish va investorlarning huquqlarini himoya qilish. Shuningdek, iqtisodiy erkinlashtirish ssenariylarini ishlab chiqish va ularning aholining turli qatlamlariga ta'sirini tahlil etib, salbiy ta'sirlarni kamaytirish bo'yicha o'z takliflarini ishlab chiqish.

2-komponent: Parlament a'zolari va investitsiya sohasidagi vazirlik va idoralarning mutaxassislari professional ko'nikmalarini ko'tarish, shuningdek, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida umumiy xabardorlikni oshirish.

Byudjet:

Umumiy byudjet

300 000 AQSh dollari

BMTTD

300 000 AQSh dollari

Qisqa ma'lumot

Maqomi:

Amaldagi

Loyihani boshlanish sanasi:

iyun 2017-yil

Loyihani yakunlashning kutilayotgan sanasi:

dekabr 2019-yil

Geografik qamrovi:

Mamlakat bo'ylab

Asosiy yo'nalish:

Barqaror rivojlanish

Barqaror rivojlanish maqsadlari:

1. 2020-yilga kelib samarali bandlikni yaratish, tadbirkorlik faoliyati va innovatsiyalar uchun sharoitlarni yaxshilash orqali barcha uchun teng huquqli va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash.

Hamkorlar:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi xususiylashtirish monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Rivojlaish Strategiyasi" Markazi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki Savdo-sanoat palatasi

INVESTITSIYA JALB ETISH DINAMIKASI
2018 YILNING I CHORAGIDA INVESTITSIYA
MAJBURIYATLARINI BAJARILISHI YUZASIDAN OLIB BORILGAN
MONITORING NATIJALARI

Dinamika 2018 yil I choragi davomida davlat aktivlari sotilishi bo'yicha ro'yxatga olingan 1153 ta oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha 478,9 mln. AQSH dollari va 2 888,0 mlrd. so'm miqdorida investitsiya kiritilishi nazoratga olingan. Shulardan, 15 ta oldi-sotdi shartnomalari xorijiy investorlar bilan tuzilgan. Yuqoridagi shartnomalarga ko'ra, bajarilgan investitsiyalar umumiy miqdori 152,4 mln. AQSH dollari va 1 111,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Investitsiya kiritish davrida 9913 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

2018 yil I choragi davomida 1153 ta oldi-sotdi shartnomalaridan 29 ta shartnoma bekor qilindi, 63 ta shartnoma bo'yicha investitsiya majburiyatlari to'liq bajarildi va qabul qilindi.

01.04.2018 y. holatiga davlat aktivlari sotilishi bo'yicha ro'yxatga olingan 1061 ta oldi-sotdi shartnomalari bo'yicha 478,7 mln. AQSH dollari va 2 692,0 mlrd. so'm miqdorida investitsiya kiritilishi nazoratga olingan. Shulardan, 13 ta oldi-sotdi shartnomalari xorijiy investorlar bilan tuzilgan. Yuqoridagi shartnomalarga ko'ra, bajarilgan investitsiyalar umumiy miqdori 152,1 mln. AQSH dollari va 1 012,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Investitsiya kiritish davrida 8177 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Amaldagi shartnomalarga ko'ra, yil boshidan investorlar tomonidan 6,2 mln. AQSH dollari va 183,2 mlrd. so'm investitsiya kiritilishi belgilangan bo'lib, haqiqatda kiritilgan investitsiyalar hajmi 5,5 mln. AQSH dollari va 128,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Hisobot davrida 63 ta oldi-sotdi shartnomalari shu jumladan, 12 ta sotib olish qiymatida va 51 ta “noлb” xarid qiymatida tuzilgan shartnomalarga asosan kiritilgan umumiy 245 ming AQSH dollari va 93,2 mlrd. so'm miqdoridagi investitsiyalar komissiya tomonidan qabul qilingan hamda investitsiya hisobidan yangi 1736 ta ish o'rinlari yaratilgan. Shu bilan birga, yil boshidan 33,1 mln AQSH dollari va 612,7 mlrd.

so'm miqdorida investitsiya kiritish sharti bilan 121 ta oldi-sotdi shartnomalari rasmiylashtirilgan bo'lib, shundan:

118 ta past rentabelli, iqtisodiy nochor davlat aktivlari va bo'sh turgan binolar “nolb” xarid qiymatida 33,1 mln AQSH dollari va 609,0 mlrd. so'm investitsiya kiritish majburiyati bilan;

3 ta davlat aktivi 3,7 mlrd. so'm investitsiya kiritish sharti bilan sotib olish qiymati bilan sotilgan.

2015-2020 yillarda “Farg’onaazot” amalga oshiriladigan loyihalar

Korxonani rivojlantirish uchun 88,2 mln. dollar miqdoridagi sarmoyalar kiritilishi lozim.

Karbamid va ammiakli selitra ishlab chiqarishni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish

Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2011 yildagi 1623-sonli qarori.

Loyihaning qiymati – 21,26 mln. dollar

Sarmoyaviy majburiyatlar – 11,2 mln. dollar

Loyihaning amalga oshirilish muddati – 2015-2017 yillar

Jismoniy va ma'naviy eskirgan uskunalarni yangilash

Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2016 yil 8-fevraldagi 11-sonli bayonnomasi.

Sarmoyaviy majburiyatlar – 67,0 mln. dollar

Loyihaning amalga oshirilish muddati – 2016-2020 yillar

Yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni tashkillashtirish

Asos: Mahsulotni diversifikatsiyalash zaruriyati

Loyihaning qiymati – 10,0 mln. dollar

Sarmoyaviy majburiyatlar – 10,0 mln. dollar

Loyihaning amalga oshirilish muddati – 2015-2020 yillar

Korxonaning kelgusi 5 yilga mo'ljallangan prognozlari "Karbamid va ammiakli selitra ishlab chiqarishni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish" loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 oktabrdagi PQ-1623-sonli "Mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi turdagi ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ustuvor chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 25 dekabrda gi «O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida» gi PQ-2458-sonli Farmoniga muvofiq amalga oshiriladi

6- BO'LIM. MEHNAT MUXOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

QISMI

Zararli changlarni inson sog'lig'iga ta'siri hamda ulardan himoyalash yo'llari ishlab chiqarishdagi ko'pgina jarayonlar turli xil tarkibdagi chang va gazlarni ajralib chiqishi bilan amalga oshadi. Shu sababli, sof toza havo deyarli uchramaydi va havo tarkibida hamisha ma'lum miqdorda (1m^3 toza havo tarkibida 0,25 mg.dan 0,5 mg. gacha) changlar bo'ladi. Changlar ko'rinishi va tarkibiga bog'liq holda quyidagi guruhlarga bo'linadi: organik, noorganik (mineral) va *metall changlari*.

Yirik changlar nafas olganda burun bo'shlig'ida qolib, o'pkaga kirmaydi. *Mayda* changlar esa (asosan, o'lchami 10 mk.dan kichik bo'lgan changlar) nafas orqali burun bo'shlig'idan o'tib, o'pkaga o'rtnashadi va vaqt o'tishi bilan turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, diametri 0,3 mk.dan kichik changlar qonga tushishi ham mumkin. Changlar o'z zarrachalari yuzasida turli xil zararli moddalar (mshyak, berilliy, kadmiy, nikel, qo'rg'oshin, xrom, mis, asbest, vanadiy va b.) bilan bog'lanib insonni kuchli zaharlanishiga sabab bo'ladi. Yuqorida keltirilgan chang turlari ichida, ayniqsa, metall changlari, jumladan, qo'rg'oshin changlari inson uchun juda xavflidir. Qo'rg'oshin changlarining havo tarkibidagi juda oz konsentratsiyasi ham inson sog'lig'iga salbiy ta'sir etadi. Masalan, 100 ml qon tarkibida 35 mkg qo'rg'oshin bo'lishi insonning bosh miyasi funksiyasining buzilishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari qo'rg'oshin qonda gemoglobin sintezining buzilishiga, muskul tizimlarini susayishidan tortib shal bo'lishigacha, jigar, buyrak va miya faoliyatini buzilishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda jahon bo'yicha 3,3 mln. tonna qo'rg'oshin ishlab chiqarilmoqda. Faqatgina avtomobillardan chiqadigan gazlar bilan havoga har yili 250 ming tonna qo'rg'oshin chiqarilmoqda. Amerikalik olimlar tomonidan bundan 1600 yil oldin yashagan janubiy Amerika tub aholisining suyak skeleti tarkibidagi qo'rg'oshin miqdori bilan hozirgi zamondagi odamlarning suyak skeletidagi qo'rg'oshin miqdori taqqoslanganda, bu miqdor hozirgi zamon odamlarida 700–1200 marta ko'p ekanligi aniqlangan.

Bundan tashqari qora metallurgiya, qurilish materiallarini ishlab chiqarish sanoati, neftni qayta ishlash sanoati, energetika sanoati va qishloq xo'jaligidagi ishlab

65 chiqarish jarayonlarida ajralib chiqadigan turli xil organik va noorganik changlar ham inson hayoti uchun xavfli hisoblanadi.

Zararli gazlar va ulardan himoyalaniish yo'llari. Havo muhiti va tarkibi changlardan tashqari ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish davrida yuzaga keladigan turli xil zaharli gazlar va kimyoviy moddalar bilan ham ifloslanadi. Bu atmosfera havosini buzilishi bilan bir vaqtda turli xil kasalliklarni kelib chiqishiga ham sabab

bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelayotgan zaharli va zararli moddalar, masalan, oqindi suvlar, axlatlar, ishlangan gazlar (ichki yonuv dvigatellaridan chiqadigan gazlar), radiaktiv moddalar, biotsidlar va boshqalar ekotizimga kelib tushgach, izsiz yo'qolib ketmaydi. Ularning kichik konsentratsiyali miqdori ham uzoq vaqt ta'sir etishi, insonlarni, o'simliklarni va hayvonlarni zaharlashi mumkin.

Ayrim zaharli moddalar ozuqani tayyorlash va iste'mol qilish jarayonida ham, ta'sir etishi mumkin. Masalan, zaharli moddalar o'simlikdan chorva mollariga, chorva mahsulotlari (sut, go'sht) orqali insonga ta'sir etib, turli xil kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ishlab chiqarish binolari va ish joylarining mikroiqlimi

Ishlab chiqarish binolari va ish joylarining mikroiqlimi ishchining sog'lig'iga va ish unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. *Ishlab chiqarish xonalarining mikroiqlimi xona havosining harorati, nisbiy namligi, havo, bosimi, havoning harakatlanish tezligi hamda issiq ish jihozlari yoki materiallari ta'siridagi issiqlik nurlanishining intensivli giorqali tavsiflanadi.* Ishlab chiqarish muhiti sharoitida ushbu ko'rsatkichlarning miqdori keng oraliqda o'zgarib turishi mumkin

Ularning miqdorlari yilning sovuq yoki issiq davriga, texnologik jarayon turiga, ishning kategoriyasiga bog'liq bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlar natijasida mikroiqlim holatini tavsiflovchi ushbu ko'rsatkichlarning optimal miqdorlari o'rnatilgan bo'lib, bu sharoitda ishchi o'zining barcha imkoniyatlarini ishga solish qobiliyatiga ega bo'ladi. Vaholanki, mikroiqlim ko'rsatkichlarini belgilangan me'yordan chetga chiqishi ishchining sog'lig'iga ham, ish qobiliyatiga ham salbiy ta'sir etadi.


Ishlab chiqarish binolari va ish joylarining mikroiklim holati ko'rsatkichlarini aniqlashda bir qancha asboblardan foydalaniladi. Masalan, havoning harorati – termometrlar, termogratlar, havoning harakatlanish tezligi – katatermometrlar va anemometrlar, havoning nisbiy namligi – psixrometrlar, issiqlik nurlanishlari – aktinometrlar va havoning bosimi – barometrlar bilan o'lchanadi.

Ishlab chiqarish xonalari va ish joylarining mikroiklim holatini belgilovchi ko'rsatkichlarning me'yoriy miqdorlari

Jadval 6.1

T/r	Yilning fasli	Ishning kategoriyasi	Harorat °C	Nisbiy namlik %	Havoning harakatlanish tezligi, m/s
1.	Yilning sovuq va o'tish davri	yengil-I	20-23	60-40	0,2
		o'tacha og'ir-I	18-20		0,2
		Ila	17-19		0,3
		o'tacha og'ir-IIb	16-18		0,3
2.	Yilning issiq davri	og'ir-III	22-25	60-40	0,2
			21-23		0,3
		yengil-I	20-12		0,4
		o'tacha og'ir-I	18-21		0,5
		Ila			
		o'tacha og'ir-IIb			
		og'ir-III			

Ishlab chiqarish xonalarini tabiiy shamollatish. Sanitar me'yorlarga asosan barcha ishlab chiqarishbinolarida tabiiy shamollatish qurilmalari bo'lishi shart. Tabiiy havo almashinish xona ichi havosi bilan tashqi muhit havosining bosimlari hamda zichliklari orasidagi farq asosida amalga oshiriladi. Ushbu shamollatish qurilmalarining asosiy kamchiligi havo almashinish darajasini tashqi muhit havosining haroratiga, bosimiga hamda shamolning tezligi va yo'nalishiga bog'liqligidadir. Tabiiy havo almashinish qurilmalari ishlash xususiyatiga ko'ra tashkillashtirilgan va tashkillashtirilmagan turlarga bo'linadi. Agar shamollatish qurilmalarida havo oqimi yo'nalishini va miqdorini rostlovchi moslamalar o'rnatilgan bo'lsa, bunday shamollatish tizimi tashkillashtirilgan deb ataladi.




6.2-sxema. Yon tomonlama shamol holatida


Sun'iy havo almashinish tizimlari. Sun'iy, y a'ni mexanik shamollatish tizimlarida havo almashinishi shamollatkichlar yoki ejektorlar yordamida amalga oshiriladi. Sun'iy havo almashinish qurilmalarining afzalliklari shundaki, ular yordamida xonaning istalgan joyidan iflos havoni haydab chiqarish yoki xonaga toza havo yuborish hamda bu qurilmalarga havoni isitish, namlash va tozalash moslamalarini o'rnatish mumkin. Bunday shamollatish qurilmalari shamollat-kichdan, havoni yuborish yoki haydab chiqarish qurilmasidan, havo kanallaridan va filtrdan tashkil topgan bo'ladi. Shamollatkichlar markazdan qochma va o'qli bo'ladi. Markazdan qochma ventelatorlar hosil qilgan bosimlariga ko'ra 3 turga bo'linadi:

- past bosimli – 1000 N/m² gacha;
- o'rta bosimli – 1000...3000 N/m²;
- yuqori bosimli – 3000... 15 000 N/m².

Shamollatkichlarning markasida ko'rsatilgan raqam, ventelator ish g'ildiragining diametrini bildiradi, masalan, No.5 shamollatkichining 5 soni shamollatkich ish g'ildiragining diametri $D_{i.g.}=500$ mm ekanligini ko'rsatadi. O'qli shamollatkichlar past bosimli havo almashinish talab etiladigan ishlab chiqarish xonalarida o'rnatiladi. Ular 250-300 N/m² atrofida bosim hosil qiladi



6.3 sxema. Elektr filtr. 1-izolyator; 2-elektrod



6.4 Sxema. Ultratovush filtr. 1-generator; 2-siklon

Xavfsizlikni ta'minlovchi texnik vositalar. Ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta'minlash asosan quyidagi tadbirlar yordamida amalga oshiriladi: a) texnikalarni xavfsizlik talablari asosida loyihalashva tayyor- lash; b) xavfdan himoyalani shning muhandis-texnik vositalaridan oydalanish; d) xavfsiz texnologik jarayonlarni tatbiq etish; e) ishchilarni xavfsizlik texnikasi bo'yicha malakali o'qitish; f) xavfsiz ish joyi va ish sharoitini tashkillashtirish.

Yuqorida ta'kidlangan tadbirlar amalda birgalikda qo'llanilgandagina ijobiy natijalarga to'liqroq erishiladi. Vaholanki, ushbu tadbirlarni ishlab chiqish, birinchi navbatda xavfning turini, uning kelib chiqish sabablarini o'rganishni talab etadi.

Faol himoya xavfli faktorlarni hosil bo'lishini yoki uning ta'sir darajasini kamaytirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Passiv himoya xavfli faktorlarni insonga ta'sirinibartaraf etishga qaratilgan tadbirlar majmuidan iborat bo'lib, u ishni tashkil etish, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, xavfsizlikni ta'minlovchi texnik vositalardan foydalanish yo'llari orqali amalga oshiriladi.


Xavfsizlikni ta'minlovchi texnik vositalar jumlasiga to'siqlar, saqlash qurilmalari, blokirovkalash moslamalari, signalizatsiya, masofadan boshqarish jihozlari va tormoz qurilmalari kiradi.

Elektr qurilmalarini yerga ulash va nollashtirish.

Elektr tokidan himoya qilishning ishonchli va keng tarqalgan vosita-laridan biri elektr qurilmalarini yerga ulash va nollashtirish hisoblanadi. *Elektr qurilmalarini yerga ulashda* qurilmaning *elektr* toki ta'sirida bo'lmagan metall qismi, masalan, korpusi (1), yerga ko'milgan elektrodلarga (3) ulanadi. Shu sababli yerga ulash tizimi elektrodلar va elektr qurilma bilan elektrodni birlashtiruvchi o'tkazgichlardan (2) iborat bo'ladi. Yerga ulash elektrodلari *sun'iy* (aynan shu maqsadda maxsus yerga ko'milgan po'lat truba yoki boshqa turdagi metall buyumلar) va *tabiiy* (boshqa maqsadlarda yerga o'rnatilgan metall buyumلar) ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Tabiiy elektrodلarga suv quvurlari, bino va inshootلarning temir beton konstruksiyalarini yerga ko'milgan detallari misol bo'la oladi. Gaz va neft quvurlaridan yerga ulash elektrodni sifatida foydalanish taqiqlanadi.


Sun'iy elektrodلار sifatida po'lat trubalar, burchaksimon po'latلar, armaturalar va temir polosalardan foydalanish mumkin. Bunday elektrodلarning uzunligi 2...3 m, qalinligi 3,5 mm.dan kam bo'lmasligi zarur. Elektrodلarni bir-biriga ulashda ko'ndalang kesimining o'lchami 4x12mm bo'lgan simlar yoki diametri 6 mm.dan kam bo'lmagan po'lat simlardan foydalaniladi.



6.5-Sxema. Elektr qurilmalarini yerga ulash: 1-eletkr qurilmalarini yerga ulash: 1-elektr; 2- elektrodلarni birlashtiruvchi sim; 3-elektrod.

Atmosfera elektr zaryadlari va ulardan himoyalalanish. Yashin va momaqaldiraq vaqtida kuchli elektr zaryadlari hosil bo'lib, ularning kuchlanishi 2V dan 8 mln V gacha, tok kuchi esa 200000 A gacha yetishi va bunday zaryadlar binolarga, insonlarga va hayvonlarga katta zarar yetkazishi, shuningdek, turli yong'inni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday vaqtda yashinning ta'siri birlamchi (to'g'ri urish) va ikkilamchi (elektrostatik va elektromagnit induksiylari ko'rinishida) bo'lishi mumkin. Shu sababli, binolar va inshootlarga yashin qaytargichlar o'rnatilishi zarur. Yashin qaytargichlar uch elementdan: yashin qabul qilgich, tok o'tkazgich va yerga ulash tizimidan tashkil topadi. Ular sterjen, antena va to'r ko'rinishida bo'ladi.

Yashin qabul qilgichlar uzunligi 1,0...1,5m, kesimi 100 mm² dan kichik bo'lmagan po'lat sterjenlardan tayyorlanib trubasimon, temir-beton yoki yog'och tayanchlarga berkitiladi. Katta uzunlikdagi binolarda kesimi 35 mm² dan kichik bo'lmagan va ikki sterjen orasiga tortilgan «tross»lar ishlatiladi. Tok o'tkazuvchi - diametri 6 mm. dan kichik bo'lmagan po'lat sterjenlardan yoki simlardan, elektrodlar esa diametri 10 mm. dan kichik bo'lmagan po'lat sterjenlardan tayyorlanadi. Yashin qaytargichdagi barcha birikmalar payvandlanib birlashtiriladi. Boltli birikmalarga faqat vaqtinchalik yerga ulash qurilmalarida foydalanishga ruxsat etiladi.



6.6-Sxema. Yakka sterjenli yashin qaytargich

Bosim ostida ishlovchi idishlardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi.

Ishlab chiqarish korxonalarida siqilgan havo, gaz, shuningdek, havo bosimli asbob-uskunalar keng ishlatiladi.

Bunday asbob- uskunalarni ishga tushirishda yoki siqilgan havo hosil qilishda ompressorlardan foydalaniladi. Kompessorlar tuzilishi va ishlatilish xususiyatiga ko'ra ko'chma va ko'chmas bo'ladi. Bosim ostida ishlovchi kompressorlar bilan ishlovchi ishchi maxsus kiyim-bosh, poyabzal, titrashga qarshi qo'lqop va himoya kaskasiga o'rnatilgan shovqindan asrovchi quloqchin («naushnik») bilan ta'minlangan hamda xavfsizlik texnikasi bo'yicha malakali o'qitilib, yo'riqnomalardan o'tgan bo'lishi lozim. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan barcha kompressorlarda manometr o'rnatilgan bo'lishi hamda ular «Standartlash va o'lchov asboblari qo'mitasi» tomonidan har yili tekshirilib turilishi kerak. Kompessor detallarini yog'lashda faqatgina zavod pasportida ko'rsatilgan yog'lash materiallaridan foydalanish talab etiladi. Boshqa yog'lovchi materiallarni ishlatish taqiqlanadi. Ish boshlanishidan oldin, kompressorlarning barcha elementlarini yaxshilab ko'zdan kechirish, bunda siqilgan havoni me'yoriy miqdordan ortib ketmasligini ta'minlab turuvchi avtomatik qurilmalar va ortiqcha havoni chiqaruvchi klapanlarning o'z o'rnida bo'lishi hamda ishchi holatda ekanligiga e'tibor berish kerak.

Siqilgan va suyultirilgan gazlardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi.

Ishlab chiqarishda ko'pgina texnologik jarayonlarni amalga oshirish maqsadida turli xil gazlardan, jumladan, kislorod, atsetilen, ammiak, propan-butan, is gazi kabilardan keng foydalaniladi. Ular maxsus metall ballonlarda yuqori bosimda saqlanadi. Ballonlarda kislorod – gaz holatida, is gazi, propan-butan aralashmasi va ammiak suyultirilgan holda, atsetilen aralashma holda bo'ladi. Barcha gazlar xavflilik darajasi va zaharliligi bo'yicha quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- a) yonuvchi va portlovchi gazlar;
- b) inert va yonmaydigan gazlar;
- d) yong'inni kuchaytiruvchi gazlar;
- e) zararli gazlar.

Gaz ballonlari gazlarning turiga bog'liq holda belgilangan ranglarga bo'yalishi va ularga gazning tarkibi, ballonni sinalgan vaqti ko'rsatilishi zarur.

Hulosa

Mineral o'g'itlarning qishloq hojalik mahsulotlrini yetishtirishdagi o'rni beqiyosdir. "Farg'onaazot AJ" da ham bir qator mineral o'gitlar ishlab chiqariladi. Ulari ishlab chiqarishda bir qator moddalar ham yordamchi homashyo vazifasini o'taydi. "Farg'onaazot AJ" ning AMMIAK-3 sexi sirka kislotasini regeneratsiya qilish va selluloza ishlab chiqarishni ham shundan jarayonlardan biri deb tushunish mumkin. Bir necha jarayonlarda ishtirok etib RUK sexiga yetib kelgan sirka kislotasi ekstraksiya va rektifikatsiya usuli bilan regeneratsiya qilinadi va sirka angedrid ishlab chiqarishga homashyo sifatida yuboriladi. Ushbu sexni texnologik linyasini optimallshtirish variyanti ushbi bitiruv malakaviy ishida isjlab chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 22 dekabr kungi Oliy Majlisga murojatnomasi.
2. Z.Salimov. Kimyoviy texnologiyaning asosiy jarayonlari va qurilmalari . T.1.2. -T.: O'zbekiston, 1994, – 366 b.
3. В.Н.Ужов, А.Ю.Вальдберг, Б.И.Мягков, И.К.Решидов. Очистка промкшленных газов от пыли. –М.: Химия, 1981. –392 с.
4. О.С.Балабеков, Л.Ш.Балтабаев. Очистка газов в химической промышленности. Процессы и аппараты. –М.:Химия, 1991. – 256 с.
5. N.A.Xolmurodov “Atrof-muhit muxofazasi”. Navoiy. 2005y.
6. А.Эргашев, Т.Эргашев. “Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish ”. Т. Yangi asr avlodi 2005 yil.
7. К.Ю.Валуконис, Ш.О.Мурадов. Основы экологии. Т. Мехнат. 2001.
8. А.То'хтаев, А.Намидов “Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish”. Toshkent. “O'qituvchi”. 1994-yil.
9. G.D.Shamsidinova, D.A.Karimova. “Kimyoviy ekologiya”. Toshkent, 2010 yil.
10. Ф.Г.Банит, А.Д.Мальгин. Пылеулавливание и очистка газов в промышленности строительных материалов. М.: Стройиздат, 1985. 353 с.
11. И.В.Доманский и др. Машины и аппараты химических производств. Примеры и задачи. –Л.:Машиностроение, 1982.–384 с.
12. К.В.Павлов, П.Г.Романков, А.А.Носков. Примеры и задачи по курсу процессов и аппаратов химической технологии. –Л.: Химия, 1987. – 5
13. G.D.Shamsidinova, D.A.Karimova. “ Ekologik muammolar”. Navoiy, 2008.